



## O'ZBEK TILIGA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN NEOLOGIZMLARNING SEMANTIK QATLAMGA TA'SIRI

**Xolmatova Elnura Sherali qizi**

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili)  
yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

**M.Amonov**

Farg'ona davlat universiteti, Filologiya fakulteti, f.f.f.d

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil

Ma'qullandi: 24-april 2023 yil

Nashr qilindi: 28-april 2023 yil

### KEY WORDS

*neologism, yangi so'z, o'zlashma  
so'z, o'zlashma qatlam,  
leksikologiya, leksika.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek tiliga ingliz tilidan o'zlashgan neologizmlarning semantik qatlamga ta'siri xususida mulohazalar taqdim etilgan.*

Neologizmlar – tilda yangi paydo bo'layotgan va ma'nosi jamiyatning ma'lum bir a'zolarigagina tushunarli bo'lgan so'zlar. Ular qo'llanish davriga ko'ra yangi qatlamni tashkil etadi. Bu termin shu nomni olguniga qadar o'zbek tilshunosligida yangi so'zlar, yangi leksika, yangiliklar [1; 39], yangirtma [2; 209] kabi nomlar bilan atalgan. Neologizmlar statusini, asosan, til egalari va ular bilan bog'liq zamon belgilaydi. Shunga ko'ra ular tilda paydo bo'lish davri va yashash davomiyligiga ko'ra ikkiga: yangi so'zlar va eng yangi so'zlar kabi turlarga bo'linadi [5; 154]. Ularning bu maqomda qancha vaqt qolishi, zamonaviy qatlamga o'tishi yoki umuman tildan uzoqlashish holati muayyan ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'ladi.

XXI asrda o'zbek tilida paydo bo'lgan neologizmlarning asosiy qismi, shubhasiz, fan-texnika rivoji va globallashuv natijasi o'laroq tashqi manba (boshqa tillardan so'z olish) asosida yuzaga keldi. Aslida ichki imkoniyat doirasida yangi so'z yasash (dasturchi, issiqxona); eskirgan so'zlarni yangi ma'noda qayta tiklash (devon, tuman) kabilarni ham neologizmning bir ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

So'nggi yillarda Internet diskursi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali chetdan kirib kelayotgan yangi so'zlar oqimi yanada ortdi. Neologizmlar tilni boyitishga xizmat qilar ekan, o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Bloglardagi so'z erkinligi ayrim holatlarda nutqda ulardan foydalanishda chalkashliklarni, boshboshdoqlikni keltirib chiqarmoqda: kimdir yangi so'zlar nutqni bezaydi deb hisoblaydi, ayrimlar o'zini kreativligini asoslamoqchi bo'ladi. Qolaversa, ba'zi blogerlar maqolalarida so'zning ma'nosini to'la anglamasdan qo'llaydilar, natijada bu orqali ommani chalg'itishga sabab bo'lishadi.

To'g'ri, bu jarayon ilmiy va badiiy nutq doirasida deyarli sezilmayotgan bo'lishi mumkin. Lekin jamiyat a'zolarining ko'pchiligi ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanishi e'tiborga olinsa, yaqin kelajakda ommaviy axborot vositalari tili va adabiy til o'rtasida keng tafovut paydo bo'lishini, adabiy tilda muloqot qilish, badiiy ijod layoqatining pasayishini tasavvur qilish qiyin emas. Hatto katta nufuzga ega bo'lgan frantsuz, nemis, rus tillari ham

ingliz tili o'zlashmalari – “anglitsizmlar” yoki “amerikanizmlar” ta'siriga tushib qolgani, bu holat davlat miqyosida jiddiy muammo sifatida baholanayotgani sir emas [3; 24]. Yuqoridagi mulohazalar neologizmlar masalasiga ko'proq e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi.

Neologizmlarning asosiy qismini ijtimoiy-siyosiy mavzuga doir so'zlar tashkil qiladi. Xususan, piar so'zini ushbu mavzu doirasida tahlil qilish mumkin. Piar so'zi inglizcha “Public Relations” (jamiyat bilan muloqot) so'zlarining bosh harflari: P va R tovushlarini qo'shib o'qish (pi + ar) orqali hosil bo'lgan. Uni PR tarzida qo'llash holatlari ham uchraydi, lekin bu bir tomonlama, ya'ni talaffuz nomuvofiqligiga sabab bo'ladi. Chunki o'zbek tilida p va r tovushlari yonma-yon aytilganda piar emas, piri tarzida talaffuz qilinadi.

Bu so'zning o'zbek tilidagi semantikasi biroz tahrirtalab. Bugungi kunda piar haqida so'ralsa, aksariyat insonlar mashhur kishilarning o'zlarini soxta shov-shuvli xabar orqali reklama qilishlarini tushunishadi. Bu orqali kishilar ongida ushbu so'zning salbiy tushuncha sifatida joy olganini sezish mumkin. Keyingi paytlarda piarni ramziy ma'noda oq, kulrang, sariq, yashil, qizil va qora kabi turlarga bo'lib talqin qilish ommalashmoqda. Masalan, oq piarda rasman ro'yxatga olingan ommaviy axborot vositalari tomonidan ijobiy maqsadga qaratilgan axborotni tashkillashtirish va uni optimistik ruhda ilgari surish maqsad qilinadi. Sariq rang esa eskirib qolgan jurnalistikani eslatib yuborishi bilan farqlanadi. Kulrang targ'ibotda ommaviy axborot vositasining qaram holati ochiq oshkor etilmaydi, balki mazkur manba o'zini axborot muallifi va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir uchinchi, betaraf tomon deb e'lon qiladi.

Ma'lum bo'ladiki, piar so'zi neologizm sifatida keng ma'noda (biror tashkilot yoki shaxs haqida salbiy, yolg'on ma'lumotlar tarqatish, turli xil mojarolar keltirib chiqarish va shu orqali mashhurlikka erishish), qolaversa, yengil-elpi (shou biznes vakillari orasidagi nikoh yoki ajrashishlar, biri ikkinchisini haqorat qilishi kabi) ma'noda ishlatiladi. Ommaviy axborot vositalari vakillari, ijtimoiy tarmoqlarda o'z bloklariga ega faollar bu kabi yangi tushunchalarni nutqqa olib kirishlarida yetarli bilim va malakalarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Samosud (inglizcha samosud – o'zicha sud qilish) so'zi ham ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez tilga olinmoqda. Bu so'z huquqbuzarlik sodir etgan yoki huquqbuzarlik sodir etishda gumon qilingan shaxs haqida tegishli davlat organiga xabar qilmasdan, uni o'zboshimchalik bilan qonunga xilof ravishda jazolash ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilida shu tushunchani ifodalovchi olomon qilmoq qo'shma fe'li mavjud bo'lib, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “Sudsiz-boshqasiz ko'plashib urmoq, urib o'ldirmoq” tarzida izohlangan [6; 118], lekin eskilik bo'yog'iga ega ekanligiga ko'ra samosud so'zidan farqlanadi. Xullas, samosud so'zini olomon qilmoq fe'lining hozirgi ifodasi sifatida tushunish mumkin.

Ijtimoiy mavzuga oid neologizmlardan yana biri VIP so'zidir. Bu so'z ingliz tilidan olingan bo'lib, “Very Important Person” (“juda muhim shaxs”, “yuqori martabali shaxs”) so'zlarining qisqartmasi hisoblanadi. Uning artikulyatsion (talaffuz) xususiyatiga e'tibor berilsa, o'zbek tiliga rus tili orqali o'zlashgani oydinlashadi. Chunki, ingliz tilida i tovushi ay tarzida talaffuz qilinadi. Qisqartma so'z bo'lgani uchun gapning qaysi o'rnida kelishidan qat'i nazar bosh harflar bilan yoziladi, lekin keyingi paytlarda bunga amal qilmaslik holatlari ham uchrab turibdi.

Yana bir ijtimoiy mavzudagi neologizm – xayp so'zi ingliz tilidagi hype so'zidan olingan bo'lib, “shov-shuv ko'tarish”, “ovoza qilish” ma'nolarini bildiradi va o'zbek tilidagi ijtimoiy tarmoq

materiallarida shu ma'noda qo'llanayotganini kuzatish mumkin. Ingliz tilida bu so'zning hayp tarzida talaffuz qilinishini hisobga olgan holda o'zbek tilida ham fonetik tamoyil asosida hayp sifatida aytish va yozish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uning xayp tarzida yozilishida esa rus tilining ta'sirini sezish qiyin emas, ya'ni rus tilida bo'g'iz undoshi (h)ni ifodalovchi tovush yo'qligi tufayli u chuqur til orqa x yoki til orqa g undoshi orqali ifodalanadi. Bundan anglashiladiki, bu so'z bizga neologizm sifatida asl manba – ingliz tili orqali emas, balki rus tili orqali kirib kelgan. Bu kabi yangi so'zlarning noqulay tomoni shundaki, ularning ma'nosini yaxshi anglamagan maktab o'quvchisi ruscha-o'zbekcha lug'atlardan izlab topishi qiyin, chunki u hali rus tiliga ham to'la o'zlashmagan va lug'atlarda aks etmagan.

**Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади. – Тошкент: Фан, 1972. – 65 б.
2. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Талқин, 2005. – 209 б.
3. Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 24 бет.
4. Шукуров О., Саидова М. Ўзлашма сўзлар тадқиқи хусусида // Қарши ДУ хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. – Қарши, 2021, 2-сон. – 154 б.
5. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 315 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 687 б.

INNOVATIVE  
ACADEMY